



Javlon Jovliyev hikoyalarida milliy gʻurur ifodasi

Abdumalikova Zarifa

Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada Javlon Jovliyevning ayrim hikoyalariga eʼtibor qaratilib, ularning badiiy-gʻoyaviy jihatlari tahlilga tortildi. Shu bilan birgalikda, yozuvchining hikoya yaratishdagi mahorati, oʻziga xos uslubi yoritib, yozuvchi badiiy-estetik olami ochib berildi.

Kalit soʻzlar: Badiiy tasvir, obraz, milliy ruh, ona, ozodlik, erk tushunchasi, oʻzaro taʼsir, istiqlol sharofati, tarixiy voqelik, turkiylar birligi, urush va tinchlik.

Soʻz sanʼati boʻlmish adabiyotning obrazlar vositasida fikrlashi uning dunyoni anglashni belgilovchi xususiyatidir. Sanʼatkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, oʻzi anglagan mohiyatni va oʻzining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu maʼnoda obraz adabiyot va sanʼatning fikrlash shakli, usulidir.

Adabiyotshunoslikda badiiy asar tahliliga doir muammolarni psixoanalitik jihatdan oʻrganish va uni anglash zarurati gumanitar sohalarda jiddiy masalalarni kun tartibiga qoʻymoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida goyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatdan oʻta yangi tamoyillar asosida ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugun biz “yuragida katta dardlari bor yozuvchi, jiddiy mavzularda kuyunib yozadigan adiblardan” deya taʼriflangan Javlon Jovliyev hikoyalari haqidagi fikrlarni bayon etmoqchimiz. Mustaqillik davri yozuvchisi adabiyotda oʻzining ixcham, teran maʼnoli hikoyalari bilan mashhur. Adibning yaqin oʻtmishdagi urush haqida yozilgan “Urush yozgan hikoya” “Akifning onasi” hikoyalarida urushning haqiqiy dahshatini oddiy tinch



aholi hayotidagi qoldirgan fojiali izlari, dushmanni “o‘zimiznikilar” deb atayotgan insonlar, urush qaysi zamonda kimlar orasida bo‘lishidan qat’iy nazar unda eng ko‘p jabr ko‘ruvchi tinch aholi ekanligini inson qalbini jumbushga keltirgan ixcham hikoya orqali tabiiy va sodda tilda tasvirlagan.

“O‘quvchini to‘lqinlantiradigan yuksak tushunchalar haqida asar yaratish uchun kishida ma’naviy huquq bo‘lmog‘i kerak, bu huquqni esa ijodkor uchun ijtimoiy dardning chinakamiga shaxsiylanganligigina berishi mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, milliy mafkuraga xizmat qilish degani istiqloq, vatan va haqidagina yozish degani emas. Chinakam san'atkor nima haqida yozishidan qat’iy nazar, u ma’naviy muammolarni badiiy tadqiq etadimi, o‘zining qalb qat’irlariga nigoh tashlaydimi, ishq-muhabbat haqida yozadimi... - o‘zi badiiy tasvir va tadqiq predmeti sifatida olgan narsani umuminsoniy qadriyatlar, ezgulik, insoniylik nuqtayi nazaridan yoritib va baholar ekan, u milliy mafkuramizning shakllanishiga, mustahkamlanishiga, jamiyat a‘zolari shuuriga singishiga xizmat qilayotgan bo‘ladi”.¹

Vatan, erk, ozodlik mavzulari ilgari surilgan “Ozodlik”, “Buxoro, Buxoro, Buxoro...”, “Jilovdoshim” . Ayol, ona tasvirlari teran va aniq qilib tasvirlangan “Onam va koinot” “Ayol”; “Paxta ishi” nomli o‘zbek mehnatkashlari boshiga kelgan qora kunlar tasviriga bag‘ishlangan “Elbek”, “Ko‘k, oq va ola kabutarlar” kabi hikoyalari orqali yozuvchi chindan ham “yuragida katta dardlari bor yozuvchi” ekanligi ayon bo‘ladi. Shu bilan birga yuqoridagi ta’rifga juda mos tushadi.

Javlon Jovliyev hikoyalari xos bir xislat qahramonlariga ism qo‘ymaslikdir. Adibning qishloqda yo‘qchilikdan qiynalgan ayol obrazi yoritilgan “Ayol” hikoyasiga e’tibor bering. Ayol, uning eri, farzandlari birortasida ism yo‘q. Ushbu xususiyat hikoya aynan bir kishiga atalmagani, ko‘pchilikning umumlashma obrazi ekanligiga ishora qiladi. Javlon Jovliyev hikoyalari qahramonlari orqali biz yonimizda yashayotgan

¹Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 2004



zamondoshlarimiz obrazini ko‘ramiz. Ularning ichki dardini his qilyotgndek bo‘lamiz. Balki, shuning uchun ham uning hikoyalari ko‘ngilga yaqin.

“Raddi balo bo‘lsin Turkistonga” ushbu jumla adibning “Jilovdoshim” hikoyasidan olingan. Adibning “Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani mening bolaligim va bugunim, aniq bilamanki ertam ham” degan fikrlari e‘tiborimni tortdi. Demak, yozuvchiga Turkiston haqida yozish fikri o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Uning hikoyalaridagi g‘oyaviy yo‘nalish jadid adabiyoti bilan ham oziqlanganini sezish uchun kitobxon zukko bo‘lishi shart emas. Shu o‘rinda adibning kitobxonlik haqidagi fikrlariga to‘xtalmoqchiman: “Kitob o‘qish ham bir mehnat ekan. Xuddi mashina haydash, dutor chalishni o‘rgangan kabi kitobxon bo‘lish uchun ham yillar, zahmatlar kerak ekan”. Demak, kitobxon bo‘lish uchun ham izlanish, ijodiy mehnat va uning zahmatini chekish kerak ekan. Jadidlar adabiyotidan oziqlangan kitobxon “Jilovdoshim” hikoyasini o‘qib, tarixi qanday buyuk bo‘lgan Turkistonning uzoq va yaqin tarixi, buguni o‘ylarini badiiy chizgilar asosida ko‘rishi, his qilishi mumkin.

“Ikki yosh uchrashuvi” hikoyasi sarlavhasiga qarab ushbu hikoya qandaydir ramantik tasvirga boy bo‘ladi degan fikr xayolimizdan o‘tadi. Aksariyat hikoyalari singari bu hikoyada ham yigit va qizga ism tanlanmagan. Ular faqat “yigit”, “qiz” atamalari shaklida berib ketilgan. Hikoya hashamdor kafe tasviri bilan boshlanadi. “Yonib turgan turli chiroqlar, kiraverishga osilgan gumbazsimon qandil u, devorga yopishtirilgan gulqog‘ozlar, turfa kartinalar” lekin qizga bularning hech biri xush kelmagan u faqat sovuqni his qiladi. Aslida, hikoya qahramonlarining har ikkalasi biz tanigan, biz bilan bir havodan nafas olayotgan zamondosh do‘stlarimiz. Yigit chet el hayotini orzu qiladigan, ilm va imkoniyatlarni maishat va manfaat yo‘lida sarflayotgan yoshlar timsoli. Javlon Jovliyev ijodida talabalar mavzusiga ko‘p e‘tibor berishidan xabardormiz (“Qo‘rqma” romani). Bu hikoyada ham aynan mazmunva mohiyat talabalar dunyosiga borib taqaladi. Yigit Amsterdamdagi mahalliy sharoitda elektr olish haqidagi ilmiy seminarga qatnashgan. Lekin undan olgan yangilik va natijalari “o‘n varaqli hisobot va slayd-shou”. Buni qarangki,



qizning otasi “operatsiya vaqtida tuman tibbiyot markazida chiroq o‘chib qolganligi uchun” vafot etgan... akasi bo‘lsa “o‘sha kuni elektr stansiyasi navbatchisini dast ko‘tarib yuqori kuchlanishli simlar ustiga otib yuborgani ”uchun qamoqda. Adib hikoya orqali aytmoqchi bo‘lgan fikri-g‘oyasi qiz nutqi orqali ochib beriladi: “...siz ko‘p tilni bilishingiz mumkin, lekin xalq nima deb so‘zlayotganini tushunmas ekansiz! To‘g‘risi, siz qatnashgan o‘sha ilmiy seminardan butunlay elektr muammosi hal bo‘lmas, ammo o‘rningizda birorta yurtparvar inson o‘sha anjumanda ishtirok etganida kichkina texnika, yangi kashfiyot namunalaridan olib kelarmidi?! Borgan sari yangiliklar ko‘payib elektr muammosi hal bo‘larmidi?! Ex, sizlarga shuncha pul, shuncha e‘tibor hayf...” Adib oramizda aynan shunday yurtparvar yoshlar bo‘lishini xohlaydi. Qizning yana bir qarori ham e‘tiborga molik: “ Men sizday odamlar bilan shaharda yashashdan, dunyo bo‘ylab sayohat qilishdan ko‘ra qishloqning oddiy maktablarida sovg‘otib bo‘lsa-da, hayrat-la ustoziga termulib turgan beg‘ubor, pokiza bolakaylarga bilim berishni afzal ko‘raman. Shunda o‘zimni kerakli his qilaman, shunda olayotgan nafasimga achinmayman. Kimni sevasiz, deysizmi? Men umidlarimni, orzularimni, kasbimni, o‘sha bilimga chanqoq bolakaylarni, onamni, akamni, yangamni, jiyanlarimni, chuqur bo‘lmasa-da, tinmay oqayotgan Qashqadaryoni sevaman. Na o‘zini, na kasbini, na xalqini, na uning dardini biladigan sizday bo‘lajak “olimlar” esa bunday sevgini ikki dunyoda ham tushunmaydi”. Ushbu hikoyadagi obrazlar fikrlari orqali adib qalbida vatan, millat, yurt kelajagi qayg‘ulari naqadar chuqur ildiz otganligini ko‘rishimiz mumkin. Yigit va qiz uchrashuvi asosiga qurilgan hikoyada millatsevar zamondoshlarimiz va aksincha xalq dardini tushunishga qodir bo‘lmagan kimsalar timsoli yorqin samimiy tarzda ochib berilgan. Millat, yurt dardi shunday dardki, inson bu dard bilan yashamas ekan o‘zini-da, anglashi qiyin kichadi. Shu o‘rinda Javlon Jovliyevning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida yozilgan bir fikrini keltirib o‘tmoqchiman: “Uxlayotgan odamni uyg‘otish mumkin. Ammo o‘zini uxlaganga solib yotgan odamni uyg‘otib bo‘lmaydi! (Mahatma Gandhi)”



Yana shunday bir ulkan dardlar haqida fikrlashmoqchimiz. Til... Ona tili ... Millat ildizi...

“Uyga borib ota onamga bo‘lgan voqeani aytib berdim. Ular negadir birdan xomush bo‘lib qolishdi. Onam pishirgan moshxo‘rdani ishtaha bilan o‘zim yer edim, xolos. Dadam o‘rnidan turib u yoqdan-buyoqqa yura boshladi. Onam ham boshini egib turgandi. - U odamni ayblama, tushun, - dedi so‘ngra dadam. – uni shunday tarbiya qilgan ota-onasida ham ayb yo‘qdir balki. O‘sha davrda. O‘sha havoda. Nafs bandalaridadir ayb, bolam! U ham o‘zbek bo‘lib yashashni xohlaydi. Lekin mustamlaka hashorotlari bizning ildizni, eshityapsanmi, bizning ildizni yo‘q qilishga uringan edi. Tilni, dinni, so‘ngra millatni. Ular maqsadiga yeta olmadi. Lekin ancha-muncha ojiz insonlarning ildizlarini zaharlab, yo‘q qilib yubordi. Ba‘zilarini butun umrga kasal qildi. Ular kasalligi shu qadar asorat qoldirdiki, bemor bu kasallikdan umrbod xalos bo‘lolmay qoladi. Sen shularning ba‘zilarini endi ko‘ryapsan, bizlar-chi! Anchagini ko‘rdik bolam.”

Ushbu jumlar adib Javlon Jovliyevning “Mustabidning hashorotlari” hikoyasidan olingan. Bu jumlar aynan millat ruhi, millat ildizlaridan biri milliy til haqida. Mustabidlarning millat ildiziga qilgan ayovsiz hujumi va uning bu gunoh qurbonlari haqida... Yozuvchi ushbu hikoyasida oddiy firma ishchisi obrazi orqali mustabidlarning xalq hayotidagi chirkin izini juda yaxshi ochib bergan. Hikoyadagi bo‘lim boshlig‘i xonasiga kirishi bilan o‘zbekchilik ufurib turadi. Chunki u haqiqatan ham, o‘zbek bo‘lib yashashni xohlaydi. Afsus... Ildiz zararkunanda hasharotlar tomonidan yeb bitirilgan... Hikoya so‘nggida bo‘lim boshlig‘ining ruscha maqolasiga yozilgan ona tilimizdagi sharh ham e‘tiborga molik: “U hasharot o‘simlikning ildiziga yetib borishni istaydi. Buning uchun u avvalo qo‘lansa hidi bilan zaharlaydi. So‘ngra u gangigan novdani ildiziga asta sekin yo‘l ochib, uni yemiradi. Dehqon buni sezmaydi, chunki o‘simlik hech lat yemaganday turadi. Vaholanki, uning ildizi allaqachon zararkunanda hasharotlar tomonidan yeb bitirilgan bo‘ladi.”



“Nimani ko‘rsang, nimani qalban haqqoniy va samimiy his qilsang, shuni yozish kerak, - deydi Chexov. – Mendan goho u yoki bu hikoyangizda nima deyishni ko‘zlagansiz, deb so‘rashadi. Bunaqa savollarga men javob bermayman. Mening vazifam – yozish... Jonli, hayotiy obrazlar fikrni shakllantiradi, fikr o‘zi esa hech vaqt obraz yaratmaydi” (J.Jovliyev) Adib yozar ekan avval tug‘ilgan fikrga moslab obraz yaratmaydi. U faqat samimiy va haqqoniy his qilgan narsalarini yozadi. Fikrga kelishni esa kitobxonga qoldiradi. Yozuvchining eng so‘nggi e‘lon qilgan hikoyasiga e‘tibor qaratsak. “ Meni sevib qolishingdan oldin”. Hikoyadagi mavzu juda dolzarb. Muallif jamiyatdagi eng katta illatlardan biri haqida dadil so‘zlaydi. Bugun oramizda hashamatga uchib, kibrga berilib butun hayotini yolg‘on asosiga qurayotgan kishilar sanoqsiz. Yolg‘on hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgan bir zamonda hikoya qahramoni yolg‘onni yoqtirmaydigan, haqiqatga tik qaraydigan, oilasini ham haqiqat asosida qurishga ahd qilgan yigit: “Men xalqqa yolg‘on gapirib qo‘yishdan shunchalar qo‘rqamanki, tunlari bundan dahshatga tushib uxlolmay chiqaman. Elga yolg‘on aytish qanday oqibatlariga olib kelishini tasavvur qilolmaysan, ayniqsa, kuzatuvchilarning yoshlar bo‘lsa, sen ularning butun boshli hayotini buzib yuborishing mumkin, buning badalini qanday to‘laysan! Xudo hech kimga bunday qismatni ko‘rsatmasin!” Hikoyada jamiyatimizdagi yana bir illat hikoya qahramonining onasi timsolida ochib berilgan. Bu erkaklarning ayollarga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘lishi, xotin qizlarning muteligi masalasi: “ U bizga hamma narsaga ko‘nish, sabr qilish va tobe bo‘lishni o‘rgatgan ayol, bilsang, kimgadir faqat bo‘ysinishni o‘rgatish jinoyat-ku”. Bu hikoya ham bugungi kunda har jabhada faol ishlab kelayotgan, bo‘lg‘usi alpomishlarni dunyoga keltirib tarbiyalayotgan onalar haqida bo‘lgani uchun ham dolzarbliki hikoyalardan sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Javlon Jovliyev hikoyalarida kuylangan ozodlik, erk, vatan, millat tuyg‘ulari; ona, ayol obrazlari; xalqning qora chirkin kunlari tasviri barcha-barchasida yozuvchining hech kimga o‘xshamagan ifoda uslubi, obrazlar tizimi yotadi.



Insonga, jumladan, yoshlarga men o‘zi nima qilyapman? Qaysi tomonga ketyapman? O‘z burchimni ado etyapmanmi, degan haqli savollarni berishga yana bir bor undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. Sharq. 2007.
2. Jovliyev J. Qo‘rqma. T. Asaxiy books. 2020.
3. Jovliyev J. Onam va koinot. Hikoyalar. – Toshkent: “Anor books”, 2022. – 272 b.